

TASA VVUF TARIXI

Kamolov Shahzod Baxtiyor o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti Tarix yo‘nalishi

2-bosqich talabasi

E-mail. shaxzodkamolov@gmail.com

Tel. +998 97 670 84 19

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasavvuf ta’limotining tarixi atroflicha yoritilgan bo‘lib, uni kelib chiqishi, ma’nosi, unga berilgan ta’riflar hamda uning vazifalari keltirib o‘tilgan. Shuningdek, tasavvufda adashmaslik va tarkidunyochilik masalasiga to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, shu bilan birgalikda uni o‘rgangan olimlar ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Ahli suffa, “Al – mo‘jal al - vasiyt”, Ahmad Zarruq , Zohid, Abdulloh ibn Muhammad ibn al-Hanafiya, “Naqshbandiya tahlili”, Zuhd, So‘fiylik, Nasafiyning “Xoja Ahmad Yassaviy risolasi”, Abu Hasan Ali – Xoraqoniy.

*Tong mahal jon dilidan oh chekkan har banda,
Nola tufayli o‘z Xudosi tomon katta yo‘l ochadi.
Shayx Xudoydod Valiy she’riyati. [1. B - 36]*

Tasavvufning o‘zi kishilar orasida turli tortushuvlarga sabab bo‘lgani kabi, bu so‘zning lug‘aviy ma’nosi ham ahli tasavvufning va boshqalarning orasida anchagina munozaralarga sabab bo‘lgan. Binobarin, “sufiy” (yoki “so‘fiy”) so‘zi haqida ham huddi mana shu holni ko‘ramiz. Zotan, bu ikki so‘z va ma’no bir-biridan ajralmas narsalardir. Keling, ana shu mulohazalarning ba’zilariga to‘xtalib o‘tamiz.

1 Ayrimlar: “So‘fiy” so‘zi ahli suffa (Ahlu-s-Suffa (arab. – suffa ahli) – ilk Islom davrida Muhammad (s.a.v)ning Madinai Munavvaradagi masjidlari supalarida yashagan bechorahol sahabalar. Ularning uy-joyi. Mol-dunyosi va ahli – oilasi bo‘limgan. Ahlu-s-Suffa doimo Allohgaga tavakkul qilib yashardilar. Bu kambag‘allar va bechorahollar, rivoyat qilinishicha, keyinchalik so‘fiy aqidada taqvodorlik, xudojo‘ylik, zohidlik, tarkidunyochilik timsollariga aylanadilar. Muhammad (s.a.v) ham Ahlu-s-Suffa bilan uzoq suhbatlar qurishni xush ko‘rganlar, ularning tashvishlaridan ogoh bo‘lib turishni odat qilganlar. “Sufiy”, “Tasavvuf” so‘zlarining kelib chiqishini ba’zan Ahlu-s-suffa nomi bilan bog‘laydilar.) [2. B 61] ga nisbatan, deyishadi. Ular asosan talabi ilm bilan umr kechirganlar. So‘fiylik o‘shalardan kelib chiqqan.

Ammo bu fikirga qarshi tarafdarlar: “Agar “sufiy” so‘zining asli suffa bo‘lganida, arab tili qoidasiga ko‘ra uni “suffiy ”deyishi kerak edi.” Shuning uchun “sufiy” so‘zi “suffa” so‘zidan olingan deyish to‘g‘ri kelmaydi.

2. “So‘fiy” so‘zi “saf” so‘zidan olingan, degan tahmin ham bor. Ularning fikiricha, so‘fiylar ibodatning oldingi safida bo‘lganlar, shuning uchun ushbu nomni olganlar.

Ammo ulamolar bu fikirni ham rad etadi. Chunki safga nisbat berilsa “saffiy” deyilishi kerak edi.

3. “Sufiy ” so‘zi arabcha “suvf” – “jun” so‘zidan olingan deyiladi. Bu qarash lug‘at jihatdan ham to‘g‘ri keladi. Qolaversa, ko‘p ibodat qilishga berilgan kishilar kiyimini ham juda sodda kiyishgan. Odatda ularning kiyimlari faqat jundan iborat bo‘lgan.

Jun mayin bo‘lmaganligi uchun ham barcha asrlarda obidlarning xos kiyimi hisoblangan. Nabiy sallolohu alayhi vassalamning obidliklari haqida so‘z borganda ham “Ul zot jun kiyim kiyar edilar” deya rivoyat keltiriladi. Sufiylar ma’nosini shu tariqa izohlanadi, bunday izohlanishiga sabab Insonlar sufiylar haqidagi qarashlarini to‘g‘ri talqin etishlari lozim.

Avvalo Tasavvufga ta’rif beradigan bo‘lsak, bunda ko‘plab hattoki minglab ta’riflarni keltirilganini ko‘ramiz. Misol uchun , Abdul Qohir Bag‘dodiy ishonchli tasavvuf kitoblarining ta’riflardan mingga yaqin ta’rifini topgan.

“Qavoidut - tasavvuf” kitobida zikir qilinishicha, mashxur tasavvuf shayxi Ahmad Zarruq rahmatillohi alayx ikki mingga yaqin ta’rifini keltirgan. Ularning hammasi Alloh taologa sodiq tavajjuh qilish ma’nosidadir. Ahmad Zarruq , Imom az – Zarruq Shoziliy (Ahmad ibn Ahmad Muhammad ibn Isa (1442 - 1493) nomi bilan ham tanilgan. XV – asrda yashagan marokashlik Shoziliy so‘fiy, forslik huquqshunos va avliyo. Zarruq molikiya mazhabining oxirgi eng ko‘zga ko‘ringan olimlaridan biri bo‘lsada, Shoziliy tasavvuf shayxi va Shoziliy tariqatining Zarruqiya oqimining asoschi sifatida ko‘proq tanilgan.) [3]

“Tasavvufning ta’riflaridagi ixtiloflarga kelsak, u kishilarning suluk darajalaridagi martabalariga oiddir. Ularning har biri o‘z ehsonini o‘z maqomida tarjima qilgandir. Bu bilan o‘zidan boshqaning maqomiga qarshi chiqqan hisoblanmaydi. Balki bu bilan o‘zini yo‘lini ko‘rsatmoqdir. Ta’riflar qanchalik ixtilofli bo‘lmasin, ularning barchasi poklanish va taqvo martabasiga yetib boradi”

Tasavvuf haqidagi ta’riflardan namunalar:

1. Tasavvuf nafsnı axloqiy jihatdan taraqqiy etadigan hayotiy falsafiy bo‘lib, u muayyan amaliy reyozat vositasida haqiqatga aylanadi va ba’zi vaqtarda oliy haqiqatga singish hissiga olib boradi. Shuningdek, undan zavq va aql ila ma’rifat hosil qilishga olib boradi.

2. Tasavvuf bir ilm bo‘lib, u ila nafsning ahvoli – yaxshi va yomoni, uning yomonini poklash yo‘li, yaxshisini ziynatlash yo‘li, Alloh taologa tomon yurish kayfiyati va unga tomon qochish uslubi o‘rganiladi. Ya’ni o‘zidan boshqadan panoh so‘ramaslik nazarda tutiladi.

3. Tasavvuf – har bir yomondan holi bo‘lish, har bir yaxshidan ibrat olish ila g‘urbatga va visolga erishishdir. U Insonni qayta bino qilish va uni har bir fikir, so‘z, ish, niyatda Robbi ila bog‘lashdir.

Binobarin, Yuqoridagi zikir qilingan ta’riflar bilan bir qatorda “tasavvuf” so‘zi va unga bog‘liq qadimgi lo‘g‘at ilmi ustalari tomonidan sinchikovlik bilan o‘rganilganini ham takidlاب o‘tishimiz lozim.

Jumladan, “Al – mo‘jal al - vasiyt” nomli lo‘g‘at kitobida bu haqida qo‘ydagilar keltrilgan:

“Savvafa fulonan” – “falonchi so‘fiylardan sanadi”, degani. “Tasavvufa fulonun” – “falonchi so‘fiy bo‘ldi”, degani.

Tasavvuf suluk tarzi bo‘lib, uning asosi nafs pok va ruh oliy bo‘lishi uchun sodda hayot fazilatlar ila ziynatlanib yashamoqdir.

Tasavvuf ilmi – so‘fiylar e’tiqod qiladigan narsalar va o‘z jamolarida hamda yolg‘iz qolganlarida ushlaydigan odoblardir. So‘fiy – tasavvuf yo‘liga ergashgan odamdir.

Tasavvufning vazifalari ko‘p bo‘lib, ulardan ba’zilarini keltirib o‘tamiz:

1. Muhaqqiy ulamolar tasavvufni “botiniy fiqh”, ya’ni “ikkinchi fiqh” (fiqh – Islom huquqshunosligi) deyiladi.

Bundan fiqh ikik qisimga: zohiriyy – “tashqi” va botiniy – “ichki” ga bo‘linishi kelib chiqadi. Ulamolarimiz shariat ilmlarini “zohiriyy fiqh” deb ataydigan yoki oddiygina “fiqh ilmi” deyish bilan kifoyalanadilar.

2. Tasavvufning aqoid ilmiga ham yaqindan bog‘ligi bor.

Ma’lumki, aqoid ilmi e’tiqod masalalarini muolaja qilib, odatda bu boradagi bosh masalalar haqida bahs yuritib, har bir masala bo‘yicha oyat va hadislardan dalillar keltiradi. Ammo bu ilmda his – tuyg‘u, zavqu shavq, qalbiy masalalar bayoniga ko‘p ahamyat berilmaydi. Tasavvuf esa aynan shu masalalarga katta e’tibor beradi.

3. Tasavvuf Qur’on va Sunnatdan haqidagi yetib, unga butun vujud bilan amal qilishini o‘rgatadi.

Albatda, oyat va hadislarni o‘qish va uqish boshqa. Ularni uqqandan keyin zohiriyy amal qilish boshqa, butun vujudi – jismoniy, qalbi va ruhi bilan amal qilish boshqa.

Tasavvuf aynan shu narsani, ya’ni Qur’on va Sunnatda kelgan ma’nolarni tushunish bilan kifoyalanib qolmay, ularning mohiyatini anglab yetishini, ularga butun vujud ila amal qilishni o‘rgatadi.

4. Tasavvuf “qalb”, “ruh”, “aql” va “nafs” kabi ma’nolarni alohida ehtimol ila tushuntiradi va ularning har biriga musulmon banda qanday munosabatda bo‘lishi zarurligini bayon qilib, usha bayonning tadbiq qilinishini ham yo‘lga qo‘yadi.

Tasavvuf nomlaridan biri “ruhiy tarbiya” bo‘lgani ham shundan. Tasavvufda “qalb”, “ruh”, “aql” va “nafs” deb ataladigan ma’nolarni aniq bilib olish katta ahamyat

beradi. Bu narsalarning har birining haqiqatini anglab yetish va ularni bir – biridan ajratib olish ham muhim bo‘ladi. Chunki ajratib olinmasa bir-biridan farqni anglash qiyi kichadi.[4. B -35]

Tasavvuf musulmonlarning shaxsiy amaliyoti sifatida Islomning dastlabki kunlaridanoq mavjud bo‘lgan. Karl V. Ernstning fikricha, tasavvufning dastlabki namoyandalari Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamning o‘zi va uning sahabalaridir. Muhammad alayhissalomga bay’at qilish bilan sahabalar o‘zlarini Allohga xizmat qilishga bag‘ishlagan edilar.

(Ey Muhammad), senga bay’at bergenlar, albatta, Allohga bay’at qilmoqdalar. Allohnинг qo‘li ularning qo‘llari ustidadir. Kimki ahdini buzsa, faqat o‘ziga zarar yetkazadi va kim Allohga bergen ahdiga vafo qilsa, unga ulug‘ ajr ato etur. - Qur'on tarjimasi, 48:10

O‘rtalarning so‘nggi tasavvufchisi, fors shoiri Abdurahmon Jomiyning so‘zlariga ko‘ra, Abdulloh ibn Muhammad ibn al-Hanafiya (vafoti 716 y.) birlinchi bo‘lib „so‘fiy” deb atalgan. Tarixan, so‘fiylar ko‘pincha tariqa deb nomlanuvchi „tartiblar”ga mansub bo‘lgan ulug‘ ustoz valiy atrofida tuzilgan jamoatlar, ular o‘z ta’limotlarini Islom payg‘ambari Muhammad sollallohu alayhi vasallamga qadar bo‘lgan ketma-ket o‘qituvchilar zanjiri orqali kuzatib boradilar. Hadisi sharifda tafsilot qilinganidek, ular ehsonga intiladilar: „Ehson – Allohga go‘yo Uni ko‘rayotgandek ibodat qilishingdir, agar sen Uni ko‘rmasang, U seni ko‘rib turuvchidir”. So‘fiylar Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamni al-Inson al-Komil, mutlaq haqiqat sifatlarini ifodalovchi komil inson deb biladilar va uni o‘zlarining yakuniy ruhiy yo‘lboshchisi deb bilishadi. XI asrdan Islom taqvosida Abdulqodir Jiloniy, G‘azzoliy va Sulton Salohiddin kabi Islomning eng ko‘zga ko‘ringan himoyachilarining so‘fiylik bilan bog‘liqligi tarixan isbotlangan. Islom sivilizatsiyasining yuksalishi Islomda so‘fiylik falsafasining tarqalishi bilan mos keladi. Tasavvufning tarqalishi Islom dinining tarqalishida, yaxlit Islom madaniyatlarini yaratishda, ayniqsa, Afrika va Osiyoda hal qiluvchi omil hisoblangan. Xoja Ahmad Yassaviy, Rumiy kabi so‘fiy shoir va faylasuflar Islom madaniyatining Anadolu (hozirgi Kichik Osiyo), O‘rtal Osiyo va Janubiy Osiyoda tarqalishini ancha kuchaytiradilar.[5]

Tasavvuf tariqatlarining insoniyat ma’naviyatini yuksaltrishga qo‘sib kelayotgan benazir hissasi butun dunyo xalqi tomonidan e’trof etilsada, ba’zan Islom olamida tasavvufga salbiy nazar bilan qarash, uning tariqatlari, mashayoxlari va karomatlarini inkor etish ko‘zga tashlanadi. Burhoniddin Biqoqiyning “Tasavvuf inqirozi”, Abdurahmon Dimashqiyining “Naqshbandiya tahlili” kitobi va boshqa kitoblarda tasavvufning barcha tariqatlar va ularga doir asarlar hamda mashoyixlar qattiq tanqid qilingan. Aziz avliyolarning maqbara va mozorlarini ziyorat qilish shirk deb sanalgan. Vaholanki, ularning bu da’volari shar’ian asossizdir.

Tasavvufning maqsadi qalbni poklash bo‘lib, yuksak odob – axloqni targ‘ib

qiladi. Tasavvufdagi inson tarki dunyochilik qilmaydi, zamon bilan hamnafas yashab, kerak bo‘lsa jamiyatga eng foydali bo‘lgan kasb va ilimlarni egallab, tili zikarda, aqli ilimda va qo‘li hunar bilan band bo‘ladi dunyoqarashi keng inson hisoblanadi.

Ba’zi adashgan tasavvufdagi toifalar, dinda g‘uluvga ketganini koramiz. Ilm olishda sustkashlik, farzandlarni ta’lim muassasalarida o‘qitmaslik, kasb – korni tashlab, pir deb bilgan insonning suhbati va yonida bo‘lishi, jamoat ishlari va tadbirda ishtirok etmaslik, o‘z piriga “qo‘l bermagan”larni adashganlikda ayplash, turli urfga kirgan zamonaviy kiyimlarni kiymaslikka tag‘ib qilish kabi qarashlar tasavvufdaman degan insonlarni ishlari noto‘g‘ri ishlaridir. Tasavvufda yurgan murshid ya’ni shogirdlarni qiladigan ishlarini shirk yoki ularni uzlarini kofir deb ataydiganlarni uzlari ilimsizligi, kitob o‘qishga toqati yetmasligini hamda eng achinarlisi farzandlariga ham shunaqa noto‘g‘ri tarbiya berayotganini yaqqol ko‘rishiniz mumkin.

Doimo ilm olib, zamondan hamnafas bo‘lib, ba’zi ilmsiz kishilar fikriga qo‘shilib, tasavvufda adashib qolmasligimiz darkor. [6]

Islom huquqshunosligida, shar’iy ko‘rsatmalarni amalga tadbiq etishda 4 ta yo‘nalish bo‘lganidek, tasavvufda ham bir necha tariqatlar shakillangan. Mashhurlari – yassaviya, tayfuriya, junaydiya, hakimiya, qodiriya, malomatiyya, kubroviya, mavlaviya, naqshbandiya tariqatlaridir.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda o‘tmish merosimizni o‘rganish, unga doir asarlarni tarjima qilish, atoqli mashoyixlarning maqbaralarini qayta qurish va ta’mirlashga katta ahamyat berilmoqda. Jumladan, Hakim Termizi, Najmuddin Kubro, Abdulholiq G‘ijdivoni, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Shayx Zayniddin, Zangi Ota, Shayx Xovondi Tohurlarning hayoti va ijodlarini chuqur o‘rganish, ularning bebaho merosidan xalqimizni bahramand etish borasidagi ko‘plab bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. [7]

Islom dini paydo bo‘lgan VII asrdan ya’ni Payg‘ambar (s.a.v) zamonlarida Islom dinini qabul qilgan har kimsani “mo‘min” yoki “musulmon” deb atardilar. Payg‘ambarimiz (s.a.v) suhbatlaridan bahramand bo‘lgan kimsalarni “sahoba” deb atardilar. O’sha vaqtarda “Obid” va “zohid” degan iboralar paydo bo‘lgan (Obid – ibodat qiluvchi, “Zohid” dunyo ishlariga qiziqmay, tarki dunyo qilib, faqatgina toat – ibodatda bo‘lgan musulmonlardir). [8. No - 10]

Xulosa. Yuqoridagi tadqiqot natijalaridan, shuni xulosa qilish mumkinki:

- Uning ma’nosi, “Sufiy ” so‘zi arabcha “suvf” – “jun” so‘zidan olingandir. Avvalo lug‘at jihatdan ham bu to‘g‘ri keladi. Qolavirsa, ko‘p ibodat qilishga berilgan kishilar kiyimni ham juda sodda kiyishgan. Odatda ularning kiyimlari faqat jundan iborat bo‘lgan. Lekn jun mayin bo‘lmagan.

- Tasavvuf, So‘fiylik bu juda qadimiy bo‘lib, Odam alayhissalomning farzandlari Shish alayhissalom davridan jundan mato keyib yuruvchilarni so‘fiylar deb atashgan,

ular bashang keyinib yuruvchi ahli dunyodan farq qilishganligi uchun shu nomni olishgan.

- Tasavvuf ko‘plab hududlarga tarqalgan shu jumladan: Markaziy Osiyo xususan Eron hududlariga yoyilishi hamda u yerdan Hindiston va Indoniziya hududlariga ham tarqaladi, shu jumladan Avstraliyaga ham kirib boradi.

Umumiy xulosa qilib aytganda, Tasavvufning paydo bo‘lish tarixi, shu jumladan uni o‘rgangan olimlar ham Tasavvuf va Islom bir-biriga uzviy bog‘liqligini takidlاب o‘tadi. Shu bilan birga uni G‘arb mamlakatlari va Amerika hududlariga ham yoyilishi alohida ahamyatga egadir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Hasanxoja Nisoriy. “Muzakkir ul - ahbob” T. A. Qodiriy. 1993. B.36 – 37
2. Najmiddinov J, Karimov J, Turdiyeva D Dinshunoslik . Qomusiy lug‘at. Imom Buxoriy xalqaro markaziy nashiryoti, 2017. B 61
3. El-Rouayheb, Khaled. *Islamic Intellectual History in the Seventeenth Century* (en). Cambridge University Press, 2015-07-08 – 248-bet. ISBN 9781107042964.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Hilol - Nashr” T..2022. B – 34 -35.
5. Barbara Daly Metcalf. *Islamic revival in British India: Deoband, 1860–1900.* Princeton, NJ: Princeton University Press, 1982 – 264–296-bet. ISBN 978-0-19-566049-4.
6. Ahmad Yassaviyning yangi topilgan hikmatlari. “Jahon adabiyoti” jurn. 2002, No 10.
7. Mirzayev S. Samarqand Shahar “Shohi Zinda” jome’ masjidi imom – xatibi. Samuslum. uz.
8. Muhammadjonov A. O‘zbekiston tarixi. "Sharq" T. 2017. B – 105
9. Akbarov Rahmatillo Murtozali O‘G‘Li, . (2023). Coverage of theater activities in uzbek national press during World war II. International Journal Of History And Political Sciences, 3(06), 21–28. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue06-05>
10. Akbarov Rahmatillo. (2023). Coverage of issues related to social life in the uzbek national press during the second world war. International Scientific and Current Research Conferences, 1(01), 47–52. Retrieved from <https://orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/1003>
11. Ақбаров, Р. (2023). Вопрос электрификации Узбекистана в годы Второй мировой войны (по данным узбекской национальной прессы). Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 443–455. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/history-of-uzbekistan/article/view/16527>